



Yakubov Odiljon Tolibjon o'g'li,

*A. Avloniy nomidagi Xalq ta'limi muammolarini o'rganish va istiqbollarini belgilash
ilmiy-tadqiqot instituti magistranti*

e-mail: odiljon Yakubov0227@gmail.com

KATTALAR TA'LIMINING PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kattalar ta'limining o'ziga xos xususiyatlari hamda kattalar ta'limini samarali tashkil qilishda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: androgogika, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, kattalar ta'limi, shaxsiy va kasbiy rivojlanish, malaka oshirish, onlayn ta'lim.

Аннотация. В данной статье освещаются специфические особенности образования взрослых и роль инструментов информационных и коммуникационных технологий в эффективной организации образования взрослых.

Ключевые слова: андрагогика, информационные и коммуникационные технологии, образование взрослых, личностный и профессиональный рост, профессиональное развитие, онлайн-образование.

Annotation. This article highlights the specific features of adult education and the importance of information and communication technology tools in the effective organization of adult education.

Keywords: andragogy, information and communication technologies, adult education, personal and professional development, professional development, online education.

Kirish. So'ngi yillarda mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buning asosiy sababi mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga munosib hissa qo'shadigan, mustaqil fikrga ega, bilimli, ijodkor, tadbirkor kadrlarni tayyorlash zarurati bilan bog'liqdir. Bugungi kunda yurtimizda yosh avlodning ta'lim-tarbiyasiga davlat siyosati darajasida qaralmoqda. Bu masalalar mamlakatimiz Prezidentining qator farmon va qarorlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-

tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmonida¹ Xalq ta'limi xodimlarining malaka oshirish jarayonini "hayot davomida o'qish" tamoyili asosida uzluksiz malaka oshirishni nazarda tutuvchi tizimga aylantirish, ularning kasbiy ehtiyojlarini tashxis qilish asosida ularning individual rivojlanish dasturini ishlab chiqish va dasturga muvofiq malakasini oshirish tartibini amaliyotga kiritish,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5085887>

shuningdek, Xalq ta'limi xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish, har bir xodimning malaka oshirish jarayonlarini monitoring qilish va shaxsiy hisobini yuritish imkoniyatini ta'minlovchi "Uzluksiz kasbiy ta'lim" maxsus elektron platformasini ishga tushirish kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan².

Hozirda kattalar ta'limi global miqyosdagi eng dolzarb nazariy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Kattalar ta'limini amaliy tashkil etish bo'yicha to'plangan tajriba, empirik ma'lumotlar fondi, katta yoshli o'quvchilarning xususiyatlari va ularning o'quv jarayoni haqidagi kuzatishlari pedagogika fanining yangi yo'nalishi – andragogikaning predmetiga aylandi. Kattalar ta'limi nazariyasi va amaliyoti katta yoshli o'quvchilarning xususiyatlarini, hayot yo'lining kontekstini va kattalarning motivatsion sohasini hisobga olishga asoslanadi.

Asosiy qism. Zamonaviy jamiyat iqtisodiyot va ijtimoiy sohalar, fan va ta'lim jadal rivojlanishining eng muhim omili sifatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi bilan tavsiflanadi. Bozor iqtisodiyotining shakllanishi va aholining turli qatlamlari uchun inqirozli vaziyatlarning rivojlanish ehtimoli oshishi sharoitida kattalar ta'lim tizimini axborotlashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, kattalarning yuqori moslashuvchanligi va harakatchanligini ta'minlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy pedagog oldida ta'limni boshqarish nuqtayi nazaridan muhim metodik vazifa turadi. Ya'ni yangi ta'limiy natijalarga erishishni ta'minlash, pedagoglarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirish, ularni o'zlarida mavjud bilim va ko'nikmalarni amaliy faoliyatga tatbiq etishga tayyorlash. Buning uchun ta'lim jarayonini o'quvchilarning bilim olish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq boshqaruv, refleksiv va boshqa faoliyat turlarini o'zlashtirishga yo'naltirish lozim. Buning uchun esa pedagogning o'zi bu borada yetarlicha bilimga ega bo'lishi, doimiy ravishda malakasini oshirib borishi talab etiladi. Bu jarayonda kattalarni o'qitishning innovatsion texnologiyalarni joriy

etish, masofaviy ta'lim, onlayn ta'lim shakllarini joriy etish asosiy vazifalardandir.

Bugungi kunda ta'lim tizimida ma'ruza ko'rinishidagi an'anaviy darslar o'rmini noan'anaviy darslar egallamoqda. Chunki o'quvchi va talabalar diqqatini jalb qilish hamda beriladigan ma'lumot mazmunini ularga yetkazish uchun o'qituvchidan har bir darsni tashkil qilishga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Darslarda ham yangi ma'lumotlarni yetkazishdan avval o'qituvchi ularning dastlab olgan bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga soladi, olingan bilimlar har xil ko'rgazmali vositalar, slaydlar, multimedia, tarqatma materiallar, qo'shimcha adabiyotlar bilan mustahkamlansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darsda olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining asosiy elementlaridan biri – o'quvchilarning o'zaro faollik asosida mustaqil, erkin fikrlash o'quv va amaliy topshiriqlarini bajarishlari, hayot davomida, albatta, yetuklikka olib boradi. Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta'lim xarakteriga ega bo'lib, o'quvchilar bilimining mustahkamlanishi, aniqlashtirilishi va kengayishiga, ularni umumlashtirishga va tizimga solishga yordam beradi.

O'qituvchi darslarni tashkil qilishga ijodiy yondoshishi, birxillikdan qochishi, noan'anaviy usullarda dars o'tishi lozim. Buning uchun esa o'qituvchi doimiy o'z ustida ishlashi, shaxsiy va kasbiy rivojlanishi kerak. O'quvchilar e'tiborini darsga qaratish uchun hozirgi zamon o'qituvchisi zamonaviy ta'lim texnologiyalari hamda AKT vositalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Hozirda o'qituvchi o'z ustida ishlashi, kasbiy tomondan o'sishi uchun juda ko'p imkoniyatlar mavjud. Faqat o'qituvchidan bu borada sabr va xohish talab etiladi.

Katta yoshdagi ta'lim oluvchilarning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- odatda, katta yoshli ta'lim oluvchining aniq maqsadi bo'ladi;
- ish va o'qish faoliyati bo'yicha ijobiy va salbiy tajribaga ega;
- yangi o'rganayotgan bilimlarining darhol foydali bo'lishini xohlaydi;
- katta yoshdagi ta'lim oluvchining o'z-o'zini boshqarish tushunchasi mavjud;
- katta yoshdagi ta'lim oluvchi ta'lim jarayonida o'zida mavjud tajribalarga tayanadi;

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5085887>

– katta yoshdagi ta'lim oluvchining muammolari maktab o'quvchisining muammolaridan farq qiladi;
 – katta yoshli ta'lim oluvchilarning ko'p qismi oilali (oila qurgan);

– katta yoshdagi o'quvchining ta'lim olishga bo'lgan qiziqishi, odatda, kasbiy muammolari bilan bo'liq bo'ladi;

– katta yoshli o'quvchi o'zini maktab o'quvchisiga qaraganda ko'proq qadrlaydi.

Amaliy nuqtayi nazardan, kattalar ta'limida o'qitish jarayoniga ko'proq e'tibor qaratish va o'qitilayotgan mazmunga esa kamroq e'tibor qaratish kerakligini anglatadi. Kattalar ta'limida keys tadqiqotlari, rol o'ynash, simulyatsiya va o'z-o'zini baholash kabi strategiyalar eng foydalidir. Ta'lim jarayonida andragog oddiy o'qituvchi yoki baholovchi emas, balki tashkillashtiruvchi va yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

Kattalar ta'limida andragog (kattalarga ta'lim beruvchi shaxs) quyidagi jihatlariga ko'proq e'tibor qaratishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

– o'rganilayotgan ma'lumotlar nima uchun o'rgatilayotganini ta'lim oluvchilarga tushuntirishi;

– ta'lim jarayonida o'zlashtirilishi zarur bo'lgan ma'lumotlar yodlashga emas, balki, vazifaga yo'naltirilganligiga (o'quv faoliyatida bajariladigan umumiy vazifalar kontekstida) e'tibor qaratishi kerak;

– ta'lim oluvchilarning turli xil kelib chiqishi (masalan, yoshi)ning keng doirasini hisobga olishi kerak;

– kattalar o'zini-o'zi boshqara olishlarini hisobga olib, berilayotgan vazifa va ko'rsatmalar ta'lim oluvchilarga o'zlari uchun yangi narsalarni kashf qilishlariga imkon berishi, xatolarga yo'l qo'yilganda yo'l-yo'riq ko'rsatishi va yordam berishi lozim.

Kattalar ta'limi dasturlarida aniqlangan – ta'lim oluvchi uchun muvaffaqiyat keltiruvchi asosiy omillar:

– ta'lim oluvchilar o'zlarini xavfsiz va qo'llab-quvvatlanadigan, shaxsiy ehtiyojlari va o'ziga xosligi hurmat qilinadigan, qobiliyatlari va hayotiy yutuqlari tan olinadigan muhitda bilim olishadi;

– intellektual erkinlikni ta'minlovchi hamda tajriba va ijodkorlikni rag'batlantiradigan muhit mavjudligi;

– ta'lim oluvchilarga tengdoshlaridek munosabatda bo'ladigan auditoriya – fikrlari tinglanadigan, hurmat qilinadigan va qadrlanadigan muhit;

– katta yoshli ta'lim oluvchi aqlli, tajribali inson sifatida qabul qilinadi va hurmat qilinadi. (O'quv faoliyatida ta'lim oluvchilar professor-o'qituvchilardan o'rganganlari kabi ular ham o'z talabalaridan ko'p narsani o'rganishadi, deb ta'kidlaydilar);

– o'z-o'zini boshqarish, bunda ta'lim oluvchilar bilim olishlari uchun mas'uliyatni o'z zimmlariga oladilar. Ular kasbiy faoliyatlarida optimal ishlashlari uchun nimaga muhtoj bo'lishsa va o'rganishni xohlashsa, o'qituvchilar bilan individual tarzda kamchiliklari ustida ishlaydilar;

– ta'lim oluvchilar ma'ruza tinglagandan ko'ra ish joyida yangi g'oyalarni sinab ko'rganda, mashqlar va tajribalar o'tkazganda, o'zaro muloqotda bo'ladigan va suhbatlashadigan joyda ko'proq o'sadi;

– doimiy ravishda qayta aloqa mexanizmlari orqali katta yoshli o'quvchilar nimani o'rganishni xohlashlarini va nimani o'rganishlari kerakligini, o'zlari uchun nima mos kelishini ularga yo'l-yo'riq ko'rsatadigan professor-o'qituvchilardan o'rganishlari mumkin bo'ladi;

Quyidagilar katta yoshlilarning ta'lim olishiga motivatsiya beradi:

– **ijtimoiy munosabatlar:** yangi do'stlar oltirish;

– **ijtimoiy farovonlik:** insoniyatga xizmat qilish qobiliyatini yaxshilash, jamiyatga xizmat qilishga tayyorlash va jamoat ishlarida ishtirok etish qobiliyatini oshirish;

– **shaxsiy yuksalish:** ishda yuqori maqomga erishish, kasbiy o'sishni ta'minlash va raqobatchilardan chetda qolish;

– **rag'batlantirish:** zerikishdan xalos bo'lish, uy yoki ish tartibida tanaffus qilish;

– **tashqi umidlar:** boshqa birovning ko'rsatmalariga rioya qilish, rasmiy vakolatga ega bo'lgan kishining tavsiyalarini bajarish;

– **kognitiv qiziqish:** o'rganish uchun o'qish, o'z manfaati uchun bilim izlash va izlanuvchan ong ehtiyojini qondirish.

Bolalar va o'smirlardan farqli o'laroq kattalar ko'proq mas'uliyatga ega bo'lishadi. Ushbu mas'uliyat tufayli kattalar ta'lim olishda ba'zi to'siqlarga uchrashadi. Bu to'siqlar vaqt, pul

yetishmasligi, ishonch yoki qiziqish, o'rganish imkoniyatlari haqida ma'lumot yetishmasligi, vaqtni rejalashtirish muammolari va bolalarni parvarish qilish hamda transport bilan bog'liq muammolarni o'z ichiga oladi.

Kattalar ta'limida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari sifatida masofadan turib malaka oshirish, ijtimoiy tarmoqlar orqali onlayn ta'lim olish, elektron ta'lim platformalari kurslarida o'qish kabilarni aytish mumkin. Ushbu usullarda ta'lim olish an'anaviy usulda ta'lim olishdan o'zining bir qancha qulayliklari bilan ajralib turadi. Bunda katta yoshli ta'lim oluvchi ish faoliyatidan ajralmagan holda malakasini oshirishi, qo'shimcha kurslarda qatnashishi, qayta tayyorlov kurslarida o'qishi, kasbini o'zgartirishi mumkin. Onlayn ta'lim olishning eng yaxshi tomoni ta'lim oluvchi qandaydir sabab bilan darsda ishtirok eta olmasa yoki ma'lumotni yaxshi o'zlashtira olmasa, mavzuga oid video, audio yoki taqdimot ko'rinishidagi ma'lumotlardan qayta-qayta foydalanib, o'rganib chiqishi mumkin.

Onlayn ta'limning yana bir yaxshi tomoni an'anaviy ta'limdan arzonligidir. Ta'limning bu turi masofa, mintaqa, o'quvchilar yosh chegarasi, ijtimoiy mavqeyini tanlamaydi. Shuningdek, nogironligi bo'lgan shaxslar, olis hududlarda va nochor oilalarda yashovchi shaxslar ham ta'lim olish imkoniga ega bo'lishadi. Ta'lim oluvchi o'qish muddatini o'zi belgilaydi, lekin platformada topshiriqlar uchun belgilangan muddatlarga amal qiladi.

Xulosa. Yuqorida olib borilgan tahlillar natijasida shunday xulosaga kelish mumkin. AKTning jadal rivojlanishi nafaqat ta'limga balki sanoat, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, savdo-sotiq kabi juda ko'plab yo'nalishlarga kirib bordi. Hozirda xorijiy davlatlarda kattalar ta'limida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jadal rivojlangan. Bugungi kunda kattalar ta'limida, xususan, pedagoglar malakasini oshirish jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'rni katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5085887>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni <https://lex.uz/docs/-5085887>
3. Аскарлов А.Д. Халқ таълими ходимлари малакасини масофадан ошириш тизимини такомиллаштириш. (PhD)...дис. – Тошкент, 2017. – 152 б. <http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/42731>
4. Маннанова Н.Х. Ўзбекистонда педагог кадрлар малакасини ошириш тизимида масофавий таълимнинг шаклланиши ва ривожланиши. (Phd). ...дис. – Тошкент, 2019. – 143 б.
5. Sheraliyev O.Sh. Masofaviy ta'lim tizimida tinglovchilar bilim darajasini nazorat qilishda avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish metodikasi. (magistr)... diss. – Qo'qon, 2021. – 82 b.
6. Asqarova O'.M., Abdullayeva M.A., Boltayeva M. Andragogika. O'quv qo'llanma. – Namangan, 2014. – 144 b.